



UDK: 94(47): 339.174

Zaxra X. MIRZAYEVA,
O'qituvchi, Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Toshkent, O'zbekiston
E-mail: szrim85111520@gmail.com, ORCID: 0009-0004-3510-1087

O'zMU professori, t.f.d A.Yermetov taqrizi asosida

ROSSIYA IMPERIYASIDA KO'RGAZMA VA YARMARKALAR TIZIMINING SHAKLLANISHI

Annotatsiya

Maqolada Rossiya imperiyasida yarmarka savdosining shakllanishi va rivojlanishi, shuningdek, uning davlat tomonidan tartibga solinishining tashkiliy-huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Yarmakalarning ichki savdo tizimidagi o'rni, hududlararo tovar ayirboshlash va yagona xo'jalik makonini shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi. XVIII asrda yarmarka faoliyatini tartibga solishga qaratilgan davlat choralari hamda XIX asrning birinchi yarmida boshqaruv vakolatlarining markaziy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida taqsimlanishi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Rossiya imperiyasi, yarmarka savdosi, ichki savdo, yarmarka tizimi, davlat boshqaruvi, savdo nazorati.

ФОРМИРОВАНИЕ СИСТЕМЫ ВЫСТАВОК И ЯРМАРОК В РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ

Аннотация

В статье анализируются процессы формирования и развития ярмарочной торговли в Российской империи, а также организационно-правовые основы ее государственного регулирования. Раскрываются роль ярмарок во внутренней торговле, их значение в межрегиональном товарообмене и формировании единого хозяйственного пространства. Рассматриваются меры государства по регулированию ярмарочной деятельности в XVIII веке и распределение управленческих полномочий между центральными и местными органами власти в первой половине XIX века.

Ключевые слова: Российская империя, ярмарочная торговля, внутренняя торговля, ярмарочная система, государственное управление, торговый контроль.

THE FORMATION OF THE EXHIBITION AND FAIR SYSTEM IN THE RUSSIAN EMPIRE

Annotation

The article analyzes the formation and development of fair trade in the Russian Empire and the organizational and legal foundations of its state regulation. It examines the role of fairs in domestic trade, their importance for interregional commodity exchange and the formation of a unified economic space. The study considers state measures to regulate fair activities in the eighteenth century and the distribution of administrative powers between central and local authorities in the first half of the nineteenth century.

Key words: Russian Empire, fair trade, domestic trade, fair system, state administration, trade supervision.

Kirish. Rossiya imperiyasida yarmarkalar savdo-iqtisodiy hayotning muhim tarkibiy qismi sifatida XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab tobora kengaya bordi. Hududlar o'rtasidagi tovar almashinuvining kuchayishi va yarmarkalar sonining ortishi ularni tashkil etish hamda savdo jarayonlarini tartibga solishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi. Natijada davlat tomonidan yarmakalarni ochish tartibi, savdo qoidalari, tovarlar harakati, o'lchov va tarozilar ustidan nazoratga doir qator me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. XIX asr boshlaridagi ma'muriy islohotlar yarmarka savdosini boshqarish tizimining yanada takomillashishiga olib keldi. Shu jihatdan Rossiya imperiyasida yarmarkalar tarixini o'rganish nafaqat savdo munosabatlarining rivojlanishini, balki davlatning iqtisodiy jarayonlarni boshqarish va tartibga solish mexanizmlarini ham yoritish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Rossiya imperiyasida tashkil etilgan ko'rgazma va yarmarkalar faoliyati, ularning ahamiyati, o'ziga xos xususiyatlari tadqiqotchilar tomonidan turlicha baholangan. G.Chabrov [17], Turkistonda tashkil qilingan yarmarkalar faoliyati, I.Ismatov [2] ko'rgazma va yarmakalarning xalqaro munosabatlardagi ahamiyati, keyingi davrlarda esa I.Leyman ularning zamonaviy talqini, A.Bedelbayev [19], S.Gorshenina [20], M.Zakirovalar [22] esa ko'rgazma va yarmakalarning mustamlakachilik xususiyatlarini o'rgandilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda Rossiya imperiyasida yarmarka savdosining shakllanishi va rivojlanishi, uni tartibga solishning huquqiy asoslari hamda davlat boshqaruvi mexanizmlari tarixiy-xronologik va tizimli yondashuv asosida tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Rossiya imperiyasida ichki savdo tizimi davriy savdo, doimiy savdo hamda davriy bo'lmagan ko'chma savdo kabi uch asosiy shakldan iborat bo'lgan [1]. Yarmarkalar esa ichki tovar ayirboshlashning asosiy vositasi bo'lib kelgan. Ular orasida yetakchi o'rinni Nijniy Novgorod, Korennaya, Kontraktovaya, Rostov va Irbis yarmakalari egallardi [2].

Aslida "yarmarka" atamasining rus tiliga nemischadan o'zlashganligi xususida qator mulohazalar mavjud [3]. Bu nemis diplomati Zigmund fon Gerbershteyn faoliyati bilan bog'liq bo'lib, u XVI asr boshlarida Rossiyaga qilgan safari chog'ida Mologa daryosi bo'yidagi Xolopye shaharchasida tashkil etilgan savdo yig'inlaridan birini kuzatgan va o'zining "Rerum Moscoviticarum Commentarii" ("Moskva ishlari haqida qaydlar") asarida ushbu savdo yig'inini nemischa "jahrmarkt", ya'ni "yarmarka" atamasi bilan ifodalagan [9]. Nemischa "jahrmarkt" ("yillik bozor") – bu belgilangan joy va muddatlarda muntazam o'tkaziladigan, bir yoki bir necha turdagi mahsulotlarning mavsumiy savdosi amalga oshiriladigan yirik savdo yig'inini anglatadi [4]. B.Mironov esa yarmarkaning asosiy belgisi sifatida savdogarlar va

xaridorlarning ma'lum hududda hamda muayyan muddatlarda davriy ravishda jamlanishini ta'kidlaydi [5]. Demak, bundan chiqadiki, yarmarkaning asosiy xususiyatlari uning davriyligi, maxsus belgilangan hududda tashkil etilishi va keng ko'lamli savdo munosabatlarini ta'minlashidan iborat bo'lgan. Bundan tashqari, zamonaviy tadqiqotchilar yarmarkalarning ijtimoiy-madaniy ahamiyatini ham alohida ta'kidlaydi [6].

Yarmarkalar o'zining iqtisodiy vazifasi va tashkiliy xususiyatlariga ko'ra bozorlardan sezilarli darajada farq qilgan. Odatda bozorlar ma'lum kunlarda ochiq maydonlarda tashkil etiladigan, asosan oziq-ovqat mahsulotlari savdosiga mo'ljallangan savdo yig'inlari deb izohlanadi [7]. Yarmarkalarda esa savdo ko'lamlari ancha keng bo'lib, ishtirokchilar turli xil mahsulotlar, jumladan manufaktura, attorlik, baqqollik va boshqa tovarlar bilan boj to'lamasdan savdo qilish huquqiga ega bo'lgan. Bozorlarda esa bunday imtiyozlar mavjud emas edi. U yerda boj to'lovizsiz faqat oziq-ovqat hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini buning uchun ajratilgan savdo joylarida, shuningdek arava, kema yoki qayiqlardan turib sotishga ruxsat berilgan [8]. Shu jihatdan yarmarkalar ichki savdo tizimida mahsulot turlari, savdo hajmi va ishtirokchilar tarkibi bo'yicha bozorga nisbatan ancha keng imkoniyatlarga ega bo'lgan.

Ma'lumki, Rossiya imperiyasida yarmarka savdosi ko'p asrlik tarixga ega. Yarmarkalar haqida ilk ma'lumotlar XVI asrdan boshlab uchrasa-da, aksariyat tadqiqotchilar ularning vujudga kelishi bundan ancha oldingi davrlarga borib taqalishini qayd etilgan. Faqat u davrda "torjok" yoki "torg" nomlari bilan atalgan [8]. Yarmarkalarning paydo bo'lishi xo'jalik faoliyatining tabiiy ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lib, turli hududlarda ortiqcha ishlab chiqarilgan mahsulotlarni boshqa joylarda yetishmayotgan tovarlarga ayirboshlash zarurati ularning yuzaga kelishiga asos bo'lgan.

XVI asrga kelib yarmarkalar Rossiya ichki savdo tizimining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Keyingi XVII–XVIII asrlarda esa yarmarkalar tarmog'i yanada kengayib, ularning soni ham, savdo aylanmasi ham izchil ortib bordi. Natijada XVIII asr boshlarida yarmarkalar imperiya tovar aylanmasining eng muhim bo'g'inlaridan biriga aylandi [12]. XVIII asr boshlarida hukumat ulgurji savdoni yangi shaklga o'tkazish maqsadida Sankt-Peterburgda Rossiya imperiyasidagi ilk tovar birjasini tashkil etdi. Biroq ushbu tashabbus kutilgan natijani bermadi. Buning asosiy sababi yarmarkalar o'sha davrda ulgurji savdoning asosiy ehtiyojlarini to'liq ta'minlab turgani bilan izohlanadi [13]. Pyotr I davrida yarmarkalarni rivojlantirishga qaratilgan bir qator me'yoriy-huquqiy choralarni amalga oshirdi [8]. Unda, yarmarkalarni faqat shaharlarda emas, balki qishloq joylarda ham tashkil etishga alohida e'tibor qaratildi. Hukumat yarmarkalarning davlat xazinasiga turli yig'imlar orqali daromad keltirishi, hunarmandchilik va savdo rivojiga turtki berishi hamda ichki bozorning shakllanishini jadallashtirishdagi ahamiyatini yuqori baholagan.

XVIII asrning ikkinchi yarmida ham Rossiya hukumatining iqtisodiy siyosati ichki bozorni kengaytirish va tovar ayirboshlash hajmini oshirishga yo'naltirilgan edi. Shu maqsadda 1753-yilda ichki bojxona postlari tugatilib, ularning

o'rniga tashqi savdo operatsiyalarida tovar qiymatining 13 foizi miqdorida yagona chegara boji joriy qilindi [8]. 1754-yildan boshlab esa Rossiya hukumati yarmarkalar xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratga boshladi. Shu maqsadda yarmarkalar o'tkaziladigan hududlarga yaqin joylashgan harbiy qismlardan maxsus otryadlar yuborish amaliyoti joriy etildi.

XVIII asrning 70-yillari oxirida Yekaterina II tashabbusi bilan tuzilgan Tijorat ishlari bo'yicha komissiya yarmarkalar tabiiy iqtisodiy ehtiyojlar asosida shakllanishini ta'kidlab, ularni markaziy hokimiyat tomonidan majburiy tashkil etishni maqsadga muvofiq emas deb topdi. Komissiya tavsiyasiga ko'ra, yirik yarmarkalarni tashkil etish bo'yicha asoslantirilgan takliflarni mahalliy ma'muriyat Senatga kiritishi, kichik yarmarkalarni ochish vakolati esa general-gubernatorlarga berilishi belgilandi. Mazkur takliflar keyinchalik hukumat tomonidan ma'qullanib, amaliyotga joriy etildi [5].

Yarmarkalarda taqiqlangan tovarlarni aniqlash va nazorat qilish mahalliy ma'muriyat zimmasiga yuklatilib, aniqlangan holatlar haqida Senatga axborot berish belgilandi. Tekshiruvdan o'tkazilmagan tovarlarni sotishga ruxsat berilmay, nizolarning oldini olish uchun ularni yarmarka ochilishidan kamida uch kun oldin ko'zdan kechirish tavsiya etildi [8]. XVIII asrning 70-yillariga kelib Rossiyada 1500 dan ortiq yarmarka faoliyat yuritgan [11. 184]. Asr oxiriga borib esa ularning soni 3000 dan oshgan va keyingi davrlarga xos bo'lgan yarmarka savdosining asosiy tashkiliy xususiyatlari shakllanib ulgurigan edi.

Shunday qilib, XIX asr boshlariga kelib Rossiyada keng tarmoqlangan yarmarkalar tizimi shakllandi. Yarmarkalar nafaqat ichki savdo va tovar ayirboshlashning asosiy mexanizmlaridan biri, balki mamlakatning yagona xo'jalik makonini shakllantirishga xizmat qilgan muhim iqtisodiy omilga aylandi. Bu davrda hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlariga ajratishga doir islohotlar doirasida 1802-yilda 8ta vazirlik tashkil etilib, yarmarka savdosini boshqarish va nazorat qilish vakolatlari Moliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi zimmasiga yuklatildi [13]. Mazkur vazirliklar tizimida yarmarka savdosi bilan bevosita Manufakturalar va ichki savdo departamenti shug'ullandi.

1832-yilga kelib Rossiya imperiyasida "Umumiy muassasa to'g'risidagi nizom" asosida boshqariladigan 43 ta guberniya mavjud bo'lib, mahalliy boshqaruvning markaziy bo'g'inini gubernator tashkil etgan [14]. Guberniya boshqarmasi orqali ma'muriy, G'aznachilik palatasi orqali esa moliyaviy va soliq masalalari yuritilgan. Guberniya boshqarmasi vakolatiga yarmarkalarni ta'sis etish, savdoda foydalaniladigan o'lchov va tarozilar ustidan nazoratni tashkil etish ham kirgan. Guberniya va uyezd shaharlarida politsiya organlari faoliyat yuritib, ular noqonuniy savdoning oldini olish hamda o'lchov va tarozilarning to'g'riligini nazorat qilgan. Uyezd shaharlarida politsiya lavozimlari, asosan, yirik yarmarkalar va savdo-hunarmandchilik rivojlangan hududlarda joriy etilgan [15]. Qishloq darajasida esa boshqaruv qishloq boshqarmasi va oqsoqollar orqali amalga oshirilib, ular aholining ehtiyoj va murojaatlarini ko'rib chiqish hamda belgilangan ma'muriy vazifalarni bajarishga mas'ul bo'lgan.

1-rasm. Yarmarka savdosini davlat boshqarishining ko'p pog'onali modeli




Diagramma tahlili XIX asrning birinchi yarmiga kelib boshqaruv vakolatlarini markaziy vazirliklardan guberniya, uyezd, volost va qishloq darajasigacha yoyilganini ko'rsatadi. Bu jarayon yarmarkaning oddiy savdo yig'ini maqomidan ma'muriy nazorat, statistik hisob, jamoat tartibi va savdo standartlari bilan bog'langan institutsional tizimga aylanganini ko'rsatadi.

Shu tariqa, XIX asrning birinchi yarmiga kelib Rossiya imperiyasida yarmarka savdosini davlat tomonidan boshqarishning asosiy tashkiliy modeli shakllandi. Bular yarmarkalarni ochish, ularning muddati va joyini o'zgartirish yoki tugatish, yarmarkalarni davlat boshqaruvi tizimiga kiritish, daromad undirish va statistik hisob yuritish hamda savdo qoidalari va jamoat tartibiga rioya etilishini ta'minlash [8]. Mazkur vakolatlar markaziy boshqaruv organlari o'rtasida aniq taqsimlangan edi.

Keyingi yillarda Rossiya imperiyasida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yarmarka savdosini boshqarish tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etdi. Sanoat ishlab chiqarishining, ayniqsa mamlakatning markaziy hududlarida jadal rivojlanishi, tovar-pul munosabatlarining kengayishi hamda natural xo'jalikning asta-sekin yemirilishi ichki va tashqi bozorlarning yanada faollashishiga xizmat qildi [11]. Shu bilan birga, ichki bozorning o'ziga xos xususiyatlari sanoat ishlab chiqarishining hududlar bo'yicha notekis joylashgani, manufakturalarning ayrim markazlarda to'plangani hamda aholi zichligidagi tafovutlar bilan belgilanardi. Bundan tashqari, mahsulot ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetib borunga qadar ko'plab vositachilar ishtirok etishi ham ichki bozorning muhim xususiyatlaridan biri edi. Shuningdek, kredit tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda transport

infratuzilmasining sustligi savdo aylanmasining sekinlashishiga olib kelgan. Shu sababli yarmarkalar ham shaharlar, ham qishloqlar uchun asosiy savdo markazi vazifasini saqlab qoldi. Hatto kichik aholi punktlari ham yarmarkalar davrida qisqa muddat ichida yirik savdo markazlariga aylangan [5].

Bu davrda sanoat ishlab chiqarishi jadal sur'at kasb etdi. 1800-yilda Rossiyada 225 ming ishchi band bo'lgan 120 ta korxona faoliyat yuritgan bo'lsa, 1850-yilga kelib korxonalar soni 2800 taga, ishchilar soni esa 860 mingga yetdi. Jumladan, ishchilar soni bo'yicha to'qimachilik sanoati 20 barobar, shakar sanoati esa 65 barobar o'sdi [16]. Sanoatning rivojlanishi va ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentining kengayishi o'z navbatida yarmarkalarga yetkazib beriladigan tovar turlarining ko'payishida ham namoyon bo'ldi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari Rossiya imperiyasida yarmarka tizimi tabiiy iqtisodiy ehtiyojlar asosida shakllanib, XVIII-XIX asrlarda davlat tomonidan bosqichma-bosqich tashkiliy-huquqiy jihatdan institutsionallashtirilganini ko'rsatdi. Yarmarkalar hududlararo tovar ayirboshlashni rivojlantirish, ichki bozorni kengaytirish va yagona xo'jalik makonini shakllantirishda muhim vosita bo'lgan, ularni boshqarish esa markaziy vazirliklardan guberniya, uyezd, volost va qishloq darajasigacha bo'lgan ko'p pog'onali tizimni qamrab olgan.

Tadqiqotdan kelib chiqib, kelgusida yarmarkalarning hududiy joylashuvi, savdo aylanmasi, tovar tarkibi va boshqaruv mexanizmlarini alohida guberniyalar kesimida qiyosiy o'rganish, shuningdek, ularning sanoat, transport va kredit tizimlari rivoji bilan o'zaro bog'liqligini statistik va arxiv materiallari asosida tadqiq etish taklif etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Мионов Б.Н. Внутренний рынок России во второй половине XVIII – первой половине XIX в. – Ленинград, 1981. – 259 с.
2. Исмаев И. Роль Нижегородской ярмарки в торговых связях России со Средней Азией и Ираном (XIX – начало XX вв.). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Ташкент, 1973. – С. 41.
3. Ярмарка // Даль В. Толковый словарь живого великорусского языка. – Москва, 1955. Т.4.
4. Сванидзе А.А., Червяков П.А. Ярмарки // Большая советская энциклопедия. – Москва, 1978. Т.30.
5. Мионов Б.Н. Внутренний рынок России во второй половине XVIII – первой половине XIX в. – Ленинград: Наука, 1981. – 259 с.
6. Краснощеков В.А. Ярмарочная торговля как механизм культурной интеграции в полиэтнических регионах: на примере ярмарок Среднего Поволжья в XIX в. // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: История России. – 2016. – Т. 15. – № 4.
7. Торжок // Даль В. Толковый словарь живого великорусского языка. – Москва, 1955. Т.4.
8. Лейман И.И. Ярмарки на Европейском севере России в XIX – начале XX века. – Сыктывкар: ИЯЛИ Коми НЦ УрО РАН, 2019. – 232 с.
9. Казарезов В. Крестьянский вопрос в России. Т.1. – Москва: Колос, 2000. – 472 с.
10. Волков М.Я. Центры ярмарочной торговли в Европейской России в первой четверти XVIII в. // Проблемы социально-экономической истории феодальной России. – Москва, 1984.
11. Хромов П.А. Экономическое развитие России. Очерки экономики России с древнейших времен до Великой Октябрьской революции. – Москва: Наука, 1967. – 535 с.
12. Чунтулов В.Т., Кривцова Н.С., Чунтулов А.В., Тюшев В.А. Экономическая история СССР. – Москва: Высшая школа, 1987. – 368 с.
13. Ерошкин Н.П. История государственных учреждений дореволюционной России. – Москва: Высшая школа, 1983. – 352 с.
14. <https://www.prlib.ru/item/364029>
15. https://rusneb.ru/catalog/000200_000018_v19_rc_1326779/
16. Рожкова М.К. Экономические связи России со Средней Азией, 40—60-е годы XIX в. – Москва: Изд-во АН СССР, 1963. – 328 с.
17. Чабров Г. Выставочная работа в Туркестаном крае (1869-1916). – Ташкент, 1955.
18. Чабров Г. Туркестан на всероссийских и всемирных выставках (1867–1914 гг.) // Труды Среднеазиатского государственного университета им. В.И. Ленина. Уз.САГУ. – Ташкент, 1959.
19. Bedelbaev A., Asanturova T., Orozahunova Z., Satimkulova M. (2025). All-Russian and Turkestani Exhibitions as a Reflection of the Russian Colonisation in Central Asia: The Case of Semirechye in the 2nd Half of the 19th Century // Connexe: Les espaces postcommunistes en question(s), Vol. 11 (1)
20. Gorshenina S. The Private Collections of Russian Turkestan in the Second Half of the 19th and Early 20th Century. – Berlin: Klaus Schwarz Verlag, 2004. – 205 p.
21. Gorshenina S., Abashin S. Le Turkestan Russe: une colonie comme les autres? – Tachkent – Paris: IFÉAC Éditions Complexe, 2009. – 550 p.
22. Закирова М.Х. Туркестанские промышленные и сельскохозяйственные выставки как фактор имперской российской политики в Центральной Азии в XIX–XX вв. // Социальные и гуманитарные науки. Отечественная и зарубежная литература. Сер. 9: Востоковедение и африканистика. – 2024. – № 2.